“KECHA VA KUNDUZ” VA OLTINCHI ROMANCHILIK MAKTABI

Hayitov Shavkat Ahmadovich
Buxoro davlat universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi
professori, filologiya fanlari doktori (DSc),

Baxtiyorova Dinora Bahodir qizi
Buxoro davlat universiteti filologiya va tillarni
O‘qitish o‘zbek tili yo‘nalishi
1-bosqich talabasi
ORCID0000-0002-4290-6071
https://doi.org/10.5281/zenodo.19997798

Annotatsiya: Maqolada adabiyotshunos G’.Murodovning “O’tkan kunlar” va “Kecha va kunduz” romanlari o’rtasidagi aloqa-bog’lanishlar haqidagi ilmiy kuzatishlariga munosabat bildirilgan. Olimning “Kecha va kunduz” Sharq va G’arb adabiy-badiiy traditsiyalarining yaxlit badiiy maydonga birlashtirish, uyg’unlashtirishda yangi tajriba hisoblanishiga doir fikrlari chuqur ilmiy asosga ega ekanligi tahlillar asosida ko’rsatilgan.
Kalit so’zlar: Badiiy matn, struktural maydon, badiiy vorislik, an’anaviylik, tarix va zamon, “Kecha va kunduz”, “O’tkan kunlar”, “Valter Skott romani”, Sharq va G’arb eposi, jadidchilik, psixologizm, milliy turmush, haqchillik, monologik tasvir, polifonik tafakkur.

Аннотация: В данной статье прослеживается наблюдения о взаимосвязь между романами «Утган кунлар» (Минувшие дни) и «Кеча ва кундуз» (Ночи и дни) литературоведа Г.Муродова. Анализ показывает, что идеи ученого о «Ночи и дне» как о новом эксперименте по объединению и гармонизации Восточных и Западных дитературно – художественных традиций в единое художественное поле имеют под собой глубокую научную основу.
Ключевые слова: Художественный текст, структурное поле, художественная преемственность, традиционность, история и время, «Ночи и дни», «Минувшие дни», «Роман Вальтера Скота», «Эпос Востока и Запада», джадидизм, психологизм, народная жизнь, справедливость, монологический образ, полифоническое мышление.

Annotation: This article provides an analytical response to the literary scholar G. Murodov’s research on the intertextual and conceptual connections between the novels “O‘tgan kunlar” (Bygone Days) and “Kecha va kunduz” (Night and Day). The study substantiates that Murodov’s argument—regarding Kecha va kunduz as an innovative attempt to merge and harmonize Eastern and Western literary-aesthetic traditions within a unified artistic framework—is scientifically grounded and supported by detailed textual analysis.
Key words: Artistic text; structural field; literary continuity; traditionalism; history and time; Kecha va kunduz; O‘tkan kunlar; Walter Scott’s novel; Eastern and Western epics; Jadidism; psychologism; national life; realism; monologic representation; polyphonic thinking.

XX asrning 30 - 40-yillarida o'zbek adabiyotida yaratilgan roman janriga mansub asarlarning eng yetuk namunalarini bir joyga yig‘ib qiyosiy-tipologik metoddan foydalanib, ularning bir-birlari bilan mushtarak va farqli ajralib turadigan jihatlarini aniqlash tadqiqotchidan juda katta ijodiy mehnatni talab qiladi. Qiyosiy- tipologik metod badiiy matnning juda kam ishlangan nazariy masalalarni yuritish uchun oydin yo'l ochadi.

Adabiyotshunos G’. Murodov tadqiqotlarida adabiy asarning strukturasi adabiy-tarixiy jarayon bilan uyg‘unlikda tadqiq qilinadi. Olim badiiy matn struktural maydonidagi voqelikning muayyan manzaralari, voqea harakatlarini adabiyotlar aro, matnlar aro bog'lanish aloqalarni, ichki aloqaviy bog'lanish oqimlarini, badiiy vorisiylik, an’anaviylik kabi masalalarni tarix va zamondagi boshqa matniy olamlar bilan aloqadorlikda tahlil qiladi.

G’.Murodovning uzoq yillar davomidagi ilmiy izlanishlari natijasidan kelib chiqadigan qat’i xulosa shuki, Abdulhamid Cho‘lponning “Kecha va Kunduz” romani (1934) tasvirlangan davr va badiiy-g'oyaviy mundarijasiga ko‘ra “Val’ter Skott” romaniga mansub. Adabiyotshunos O.Sharafiddinov ifodasi bilan aytganda: “Turkistonning tarixiy taqdiri ifodalangan mamlakatning zulmga, jaholatga adolatsizlik va haqsizlikka to'la hayoti ochib berilgan [3;60].

Olim D.Quronovning “Cho‘lpon poetikasi (nasriy asarlari asosida)” (Toshkent, 1998) deb nomlangan doktorlik dissertatsiyasida “Kecha va Kunduz”, “O'tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon”, “Sarob” romanlari o‘rtasidagi aloqa bog'lanishlar haqida muhim ilmiy kuzatishlar mavjudligini qayd qiladi. G’ayrat Murodov talqincha, “Kecha va Kunduz” Sharq va G‘arb adabiy-badiiy traditsiyalarni yaxlit badiiy maydonga birlashtirish, uyg‘unlashtirishda yangi tajriba hisoblanadi. Bu “Kecha va kunduz”ning epik janr sifatida katta matniy struktural imkoniyatlarga egaligi o'z badiiy maydoniga yirik voqea hodisalarni, epik qahramon ruhiyatining ko'p qatlamli fikriy-hissiy oqimlarini sig'dirishi bilan belgilanadi. “O'tkan kunlar” badiiy strukturasi uchun ko'proq Sharq va G'arb eposi namunalari genetik-shajaraviy manba bo‘lgan bo'lsa, “Kecha va Kunduz” ko'proq G'arb romanchilik maktabining ijodiy-estetik, badiiy tajribalaridan oziqlangan. Abdulhamid Cho‘lpon katta tajribaga ega bo‘lgan fransuz, rus, ingliz, nemis, amerika epik adabiyotlari tajribalaridan ijodiy foydalangan. Bu ijodiy intilishning belgilarini professor G’.Murodov teran anglagan. Olimning fikrlarini alohida bandlarga ajratib, quyidagicha aks ettirish mumkin:

1. Romantik tasvirlar o'rniga realistik, kundalik oddiy hayot manzaralari tasviri berilgan;
2. Romanning syujet oqimida voqealar tizmasida ideal qahramon emas, realistik obraz harakat qiladi;
3. Chuqur psixologizm, turli usul vositalar badiiy matnga olib kirilgan.

Genetik-shajaraviy manbalar, badiiy-estetik tasvir usullari, badiiy xronotop, qahramonlar strukturasi kabilarda jiddiy farq-tafovut borligiga qaramay, yagona hududiy, adabiy-tarixiy jarayonda yuzaga kelgan “O’tkan kunlar” va “Kecha va kunduz” o'rtasida mustahkam aloqa-bog’lanishlar, adabiy-poetik dunyoqarash, ijtimoiy-mafkuraviy tafakkur bilan bog’liq mushtarakliklar mavjudki, ular G'.Murodov fikricha quyidagilardan iborat:

1. Har ikkala roman matnlarida jadidchilik dunyoqarashi, mohiyat va maqsadi badiiy ifodasini topgan. Chunki A.Qodiriy ham, A.Cho'lpon ham XX asr boshida Turkistonda yuzaga kelgan ijtimoiy-mafkuraviy, madaniy-ma'rifiy harakat jadidchilik vakili edilar;
2. Ikkala roman markazida ham vatan ozodligi, mustaqilligi g'oyasi qo’yilgan. Bu “O’tgan kunlar”da Turkistonning mustaqillikdan mahrum bo'lish sabablari talqinida “Kecha va Kunduz”da milliy davlatchiligi, mustaqilligidan ayrilgan xalqning fojiali hayoti tasviri orqali ifodalangan;
3. “O'tkan kunlar” hamda “Kecha va Kunduz” orasidagi matniy-struktural aloqalar badiiy obraz yaratishda, badiiy matn yaxlitligini yuzaga keltirishda, badiiy matn yaxlitligini yuzaga keltiruvchi ijodiy estetik prinsiplar, vositalarni, roman psixologizmini yuzaga keltirishda namoyon bo'ladi;
4. “O'tgan kunlar”da ham, “Kecha va Kunduz”da ham o'zbek milliy turmushidan olingan, o'z xarakteri, faoliyati, xatti-harakatlari, ruhiyatida mavjud muhitning yetakchi xususiyatlarini mujassamlantirgan obrazlar yaratilgan;

5. Xalqchilik adabiy-badiiy prinsipi har ikkala romanga ham kuchli emotsional ta'sir o'tkazib, roman badiiy-estetik qurilmasi, g'oyaviy-badiiy konsepsiyasining hayotiy bo'lishini ta'minlagan;

6. Ikkala roman badiiy matnini jahon romanchiligi, badiiy-estetik tarixida markaziy o'rin egallab kelgan monologik tafakkur mustahkam bog'lagan;

7. Abdulhamid Cho'lpon tasviricha Razzoq so'fi "indamas, ziqna odam". Akbarali mingboshi esa "chekka suyaklari turtib chiqqan, peshonasi bo'yiga tor, eniga keng… qanshari past", uni "belida kumush kamari, yonida kumush sopli qilichi, ustida zarbof choponi bo'lmasa, hech kim amaldor demaydi" [3;66].

Bunday tasvir jahon eposi, xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiyotga xos. Mazkur tasvir usullari va vositalari ilk marta tarixiy Abdulla Qodiriy romanlari badiiy matniga olib kirilgan.

G'.Murodov ilmiy uslubining o'ziga xos yo'nalishlaridan biri, bizningcha, roman personajlariga ixcham, aniq tavsif berilishida nazarga tashlanadi:

Akbarali mingboshi - Vatan, xalq, millat dardidan uzoqda turgan kimsa;

Noib to'ra - yurt, xalq, muteligini mustahkam saqlamoqchi bo'lgan amaldor;

Razzoq so'fi – manqurtlik psixologiyasini o'zida to'la mujassamlashtirgan mutaassib;

So'fining xotini, Zebi, mingboshining xotinlari Xadichaxon, Poshshoxon, Sultonxon – oila, muhit mahdudligi iskanjasiga tushgan ayollar va h.k.

Iste'dodli olim "Kecha va kunduz"da talqin qilingan xalqning abgor, fojiali hayoti, qismatini "O'tkan kunlar" qahramoni Yusufbek hojining quyidagi so'zlari bilan izohlagan: "Turkistonning "halokat chuquri"ga borib qolgani, "naslning bo'ynig'a" o'ris bo'yindurig'ining kiydirilgani…"[3;64].

G'.Murodovning nazariy mulohazalariga ko'ra, yozuvchining olam, koinot, insoniyat, shaxs haqidagi dunyoqarashi, nuqtai nazari, g'oyalari roman badiiy konsepsiyasiga, matn tizimiga, har bir qahramonning badiiy strukturasiga o'z ta'sirini o'tkazsa va ular roman badiiy markazida yetakchi mavqeni egallasa, bunday roman monologik roman hisoblanadi. "O'tkan kunlar" - monologik romanning mumtoz namunasi. Tasvirga olingan voqea-hodisalar, qahramonlarga munosabat, ijodkorning har bir obrazda o'z qarashini ifodalashi, ijobiy hodisalarni ma'qullashi, salbiy illatlarni inkor etishi "monologik tafakkur" talablaridan kelib chiqadiki, "Kecha va kunduz"ning epik olamida xuddi shunday tafakkurning in'ikosi kuzatiladi.

Abdulhamid Cho'lpon Abdulla Qodiriyning an'analarini davom ettirgan, "oltinchi romanchilik maktabi" badiiy ko'lami, g'oyaviy-falsafiy mundarijasini kengaytirgan.

Olim talqinicha, "Kecha va kunduz"ning muhim badiiy-poetik manbalaridan biri G'arb romanchiligidir. Abdulhamid Cho'lpon romanining poetik olamida G'arb epik adabiyotining ilg'or yutuqlari adabiy-poetik jihatdan qayta ishlanib, o'zbek milliy adabiyoti mezonlariga uyg'unlashtirilgan. Buni, xususan, "Kecha va kunduz" badiiy strukturasidan mustahkam o'rin olgan "polifonik tafakkur" alomatlarida kuzatish mumkin. "Polifonik tafakkur" mohiyati G'.Murodov tomonidan quyidagicha izohlangan: "Mutafakkir M. Baxtin asos solgan "polifonik tafakkur" nazariyasiga ko'ra badiiy matn, shu jumladan, roman matni hududida muallif tasvir etilayotgan voqea-hodisalariga, qahramon xatti-harakatlari, psixologik olamiga aralasha olmaydi, ular "o'z-o'zicha" harakatda bo'ladi. Polifonik roman matnida muallif ham ishtirok etishi mumkin. Ammo u badiiy syujet tizimidagi obrazlardan biri bo'lib, boshqa qahramon va personajlarga ham, voqea oqimi, tizimiga ham o'z hukmini o'tkazish imkoniyatiga ega emas"[3;67]. Demak, bizningcha, tasvirlovchining o'zi tasvirda aks etayotgan narsalarga betaraf munosabatda bo'ladi.

G'. Murodov fikricha, "Kecha va kunduz" sof ma'noda polifonik roman emas, unda ko'proq monologik matnga mos keladigan tasvir usullari yetakchilik qiladi. "Kecha va kunduz"da polifonik tasvir Akbarali, Miryoqub kabi obrazlar strukturasida mujassamlangan. Bu

obrazlarda muallifning monologik bahosi, mushohadasiga bo‘ysunmaydigan, o‘zicha mustaqil bo‘lgan harakat, fikr oqimi kuzatiladi. Masalan, monologik tasvirda chuqur mulohaza yuritishdan yiroq obraz sifatida tasvirlangan Miryoqub “Kecha va kunduz”ning ayrim o‘rinlarida fikrlovchi, ziddiyatli kechinmalar girdobiga tushib qolgan inson tarzida namoyon bo‘ladi. Muallif bunday vaziyatni badiiy psixologizmning “ichki monolog” usuli vositasida yaratadi. G‘.Murodovning “Kecha va kunduz”da monologik va polifonik tafakkur munosabatiga doir bildirgan quyidagi nazariy mulohazalari yangiligi, chuqur ilmiy asosga ega ekanligi bilan muhim amaliy ahamiyat kasb etadi: “Roman badiiy matni olamida bu ikki (monologik, polifonik) tafakkur o‘zaro bog‘lanib, yaxlit bir badiiy hudud dunyosini tashkil etgan, ular ayrim hollarda bir-birini rad etishga, raqibini badiiy maydondan chetga surib tashlashga intiladi. Matn maydonidagi bunday muxolifat – tafakkur oqimlarining zidligi roman badiiyatiga, obrazlar to‘laqonligiga putur yetkazmagan, aksincha romanning jozibali, qiziqarli chiqishiga yordam bergan, psixologizm teranligini ta’minlagan”[3;68]. Insonning muhit bilan bog‘liqligi, har xil sharoitlarning shaxsga ta’siri, qahramon ongining o‘ziga xos murakkab, serqirra, cheksiz olami, shaxs xatti-harakatlari, faoliyati, xarakteri, ichki munosabat-aloqalari “Kecha va kunduz”da chuqur psixologizm bilan ochib berilgan. G‘.Murodov Abdulhamid Cho‘lponning insonni bunday murakkab tasvirlash prinsipini G‘arb ijtimoiy-falsafiy, estetik tafakkurida paydo bo‘lib rivojlanayotgan oqim, maktab, nazariya va ta’limotlardan, jumladan, freydizm ta’limidan xabardorligining natijasi deb biladi. Olim ma’lumotlariga ko‘ra, psixologiyadagi freydizm ta’limoti asoschilari, jumladan Zigmund Freyd (1856-1939) insonni o‘rganishda asosiy e’tiborni uning ruhiy strukturasiga qaratganlar. Bunday tadqiq usuli asrlar davomida insoniyat uchun noma’lum bo‘lib kelgan sirli hodisalarni bilishga oydin yo‘l ochgan. XX asrning birinchi yarmidan boshlab Amerika va Yevropa davlatlarida Zigmund Freyd ta’limoti keng tarqalgan, badiiy adabiyot hududiga kirib borib, roman badiiy maydoni strukturasiga o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Buyuk Britaniya adabiyotida freydizm ta’sirida “psixologik maktab” yuzaga kelgan. B.Bul’f, K.Makkenzi, M.Sinkler, D.Richardson kabi maktab namoyandalari asosiy diqqatlarini shaxs ruhiy dunyosi, undagi ziddiyatlarga qaratganlar.

“Kecha va kunduz” badiiy olami hududiga kiritilgan hamda insonni to‘laroq, chuqurroq badiiy tadqiq etish vazifasini bajarishga yo‘naltirilgan freydizm ta’limotining ta’siri G‘.Murodov tadqiqotlarida g‘ayriinsoniy xulq-atvor sohibi, hayvoniy nafslarning sifat va xususiyatlarini o‘zida mujassam etgan Miryoqub; mingboshining xotinlari Poshshoxon va Sultonxonning o‘y-kechinmalari, maqsad-harakatlarini; ma’suma qiz Zebining o‘zi sevmagan, badbashara, qari er – Akbarali mingboshiga munosabatida “ong” va “ong orti” qatlamlariaro ichki aloqa hamda ziddiyatlarini tahlil qilish orqali ochib berilgan va ularga hayotiy holat-hodisa nuqtai nazaridan baho berilgan. Insonga xos bunday mayl, ehtiyojlar tasviriga turk, arab, hind, fors-tojik badiiy manbalari, xususan, “Ming bir kecha”da keng o‘rin berilganligini to‘g‘ri ta’kidlagan olim yozadi: “Kecha va kunduz” romanining bunday nuqtalarida Sharq-u G‘arb badiiy tajriba, adabiy zaxira chiziqlari o‘zaro kesishib tutashadi va matn maydoni hududiga o‘ziga xos badiiy poetik sinkretizmni yuzaga keltiradi”[3;71]. O‘zbek adabiyotida sayyor syujetli asarlar juda qadimiy tarixga ega. Murakkab va qorishiq ijodiy uslubda yaratilgan bunday yo‘nalishdagi badiiyat durdonalari folklor va yozma adabiyot o‘rtasidagi aloqa va o‘zaro ta’sirning nodir namunalari hisoblanadi. Ijtimoiy hayotni badiiy obrazlar vositasida idrok etishning o‘ziga xos namunasi bo‘lgan bunday yo‘nalishdagi asarlar asrlar davomida yuksak axloqiy-ta’limiy, ilohiy-tasavvufiy, ma’naviy-ma’rifiy manba sifatida o‘quvchilar qalbini zabt etib keladi. Insoniyat hayotining turli davr va bosqichdagi g‘oyaviy-axloqiy, ilohiy-irfoniy qarashlarini badiiylashtirishdek g‘oyat katta estetik vazifani ado etadi. O‘z ko‘lami va ahamiyati nuqtai nazaridan barcha davrlar uchun dolzarb mavzu va muhim voqealarni qamrab olgan sayyor mazmundagi asarlar nasrda yoki nazmda yozilganligidan qat’i nazar noyob asar sifatida qo‘ldan qo‘lga o‘tib o‘qiladi. Sharq xalqlari adabiyoti tarixida keng ommalashgan sayyor syujetlardan biri Salomon va Ibsol nomlari

bilan bog‘liq voqealar tizmasidir. Ushbu mavzuda Husayn ibn Is’hoq (809-873), Abu Ali ibn Sino (980-1037), Ibn Tufayl (vafoti 1186), Abdurahmon Jomiy (1414-1492) va boshqa ijodkorlarning asarlari yaratilagn. Abu Ali ibn Sinoning “Salomon va Ibsol” qissasi shu syujetda vujudga kelgan asardir. O‘rta asrning eng yirik ensiklopedist olimi, o‘z zamonasidagi mavjud ilmlarning deyarli barcha sohalariga yuksak hissa qo‘shgan, meditsina, falsafa, mantiq, psixologiya, fizika, matematika, kimyo, odob, adabiyotshunoslik, musiqa nazariyalariga oid to‘rt yuz ellikka yaqin asar yozgan allomaning “Salomon va Ibsol” qissasi boshqa nasriy asarlardan badiiy strukturasi, g‘oyaviy mazmuni, timsollar olami nuqtai nazaridan ajralib turadi. Shayx-ur-raisning “Hayi ibn Yaqzon” va “Risolat at-tayr” falsafiy qissalarida majoziy obrazlar syujet oqimi mag‘zida tursa “Salomon va Ibsol”da hayotiy-maishiy muammolar, axloqiy poklik masalasi voqealar tizmasi markazida turadi. Inson qalbida pinhon yotgan shahvoniy hirs jazbasi biron asarda “Salomon va Ibsol” qissasidagi kabi chuqur talqin qilinmagan. Qissada munozara yuritilayotgan sohaning inson ruhiy dunyosi, xatti-harakatlarida mustahkam o‘rni borligi aniq psixologik tahlillar orqali ochib berilgan. Inson qiyofasi manzaralarining yangi-yangi qirralari kashf etilgan. Sharq xalqlari hayotida oilaviy munosabatlarning, shahvoniy-jinsiy aloqa muammolarining inson axloqiy-ma’naviy olamida yetakchi o‘rinda turishi teran dalillangan. Muammoga yuqorida ayrimlariga e’tibor qaratilgan real hayot manzaralari nuqtai nazaridan qaralganda G‘.Murodov qalami bilan bitilgan quyidagi nazariy mulohazalarning chuqur hayotiy va ilmiy asosga ega ekanligi oydinlashadi: “Ong orti zahirasida yashiringan biologik-nafsoniy istak-tuyg‘ular “ong” qatlamidagi “mayl-hissiyot va fikrlardan ustunlik qiladi, ularni o‘z izmi-irodasiga bo‘ysundira oladi” [3;71]. “Salomon va Ibsol” qissasi badiiy strukturasiga xos qahramon ongining o‘ziga xos murakkab , ko‘p qirrali, hududsiz olami talqini “Yusuf va Zulayxo” sayyor syujetli dostoni qahramonlari Yusuf va Zulayxo sarguzashtlarida ham kuzatiladi. Fikrimizcha, “Salomon va Ibsol”, “Yusuf va Zulayxo” kabi sayyor syujetli asrlarni freydizm ta’limoti, psixoanalitik nazariya asosida o‘rganish ko‘pgina adabiy hodisalarni yangicha anglash va baholashga imkon yaratadi.

Adabiyotlar:

1. Дониярова Ш.Х. Истиқлол даври ўзбек романларида миллий руҳ ва қаҳрамон муаммоси.): филол. фан. ... док. дис. автореф. - Тошкент, 2012. – 38 б б.
2. Жирмунский В.М. Проблемы сравнительно-исторического изучения литератур. Взаимосвязы и взаимодействие национальных литератур - М.:Наука, 1961. - 439 с.
3. Murodov G’. Tarixiy roman: genezisi, keyingi taraqqiyoti.-Toshkent: Fan, 2005-168b.
4. Расулов А. Танқид, талқин, бахолаш. - Тошкент: Фан, 2006. - 232 б.
5. Шарафуддинова М.О., Саидов А.Х., Мирза-Ахмедова П.М. Художественная и критическая мысль в контексте национальной и мировой традиции. - Ташкент: Фан, 2009. - 152 с.
6. Сулаймонова Ф. Шарқ ва арб. Қадимий адабий алоқалар. -Тошкент: Ўзбекистон, 1997, 414 б.
7. Шермухаммедов П. Барчадин яхшироқ хаёт гули. - Тошкент: Адабиёт ва саньат, 1983. -Б. 75
8. Фрейд З. Я и Оно. - Москва: ЭКСМО, 2009. - 864 с.